
Xalqaro “Armiya-2020” harbiy o'yinlari TAYYORGARLIK TADBIRLARI



Xalqaro “Armiya-2020” harbiy o'yinlari

TAYYORGARLIK TADBIRLARI

Avval xabar berganimizdek, Qo'qon shahrida o'tkaziladigan ARMIYA-2020 o'yinlarining “YO'L PATRULI” musobaqasiga tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Musobaqa Bosh hakamlari va Hay'at a'zolariga sertifikatlar topshirish tadbiri bo'lib o'tdi.

Harbiy qism o'quv markazida Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi va O'zbekiston terma jamoalari Bosh hakamlari va Hay'at a'zolariga sertifikatlar topshirildi.

Mazkur musobaqada bosh hakamlik vazifasi Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari, polkovnik Zafar Bazarbayevga yuklatildi. Tadbirda musobaqani shaffoflik bilan baholash va odilona qarorlar qabul qilish hakamlarning asosiy vazifasi ekanligi alohida ta'kidlandi.

Ishtirokchilarga xavfsizlik qoidalari yana bir bor tushuntirilib, o'quv nuqtalari bilan tanishtirildi.



O'quv nuqtalaridagi barcha harakatli jarayonlarning musobaqa talablariga mos holda bo'lishi Hakamlar va terma jamoalar mas'ul vakillari bilan birgalikda kelishib olindi. Jamoalar musobaqa nizomiga ko'ra bellashuv davomida harakatlanadigan "NEXIA-3" rusumli avtomobillarni qabul qilib olishdi.

Bevosita maydonning o'zida avtoulovlar jamoalarga birlashtirildi, ishtirokchilar mashinalarning qulayliklari bilan tanishish uchun ularni boshqarib ham ko'rishdi.

Musobaqalar doirasidagi barcha jarayonlar sanitariya-gigiyena talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etilmoqda.

SHARQIY HARBIIY OKRUG MATBUOT XIZMATI

2020-08-20 17:45:24